



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-avgust oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(72) 221-51-26*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Jizzax viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 320 950,9** ming AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **517 307,5** ming AQSH dollariga yoki 64,4 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024 –yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **1 320 950,9** (+64,4 %)



Saldo

(2023- y.: **803 643,3**)

2024- y.: **-1 049,546,2** (2023- y.: **-568 632,3**)




Eksport

2024- y.: **135 702,4** (+15,5 %)

(2023- y.: **117 505,5**)

TSA'dagi ulushi, % da

10,3



Import

2024- y.: **1 185 248,5** (+72,7 %)

(2023- y.: **686 137,8**)

89,7



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston viloyatsi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **135 702,4** ming AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 15,5 % ga ko‘paydi) va import hajmi **1 185 248,5** ming AQSH dollariga (83,3 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **1 049 546,1** ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



VILOYAT TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

Xitoy TSA – 578181,2 Eksport: 25 717,9 Import: 552 463,3  43,8 %	Koreya Respublikasi TSA – 354 416,7 Eksport: 120,7 Import: 354 295,0  26,8 %	Litva TSA – 72 665,3 Eksport: 0,0 Import: 72 665,3  5,5 %	Chexiya TSA – 58 921,7 Eksport: 191,3 Import: 58 730,4  4,5 %	Turkiya TSA – 48 134,0 Eksport: 15 193,6 Import: 32 940,4  3,6 %
Rossiya TSA – 47 703,9 Eksport: 34 451,2 Import: 13 252,7  3,6 %	Qozog‘iston TSA – 46838,0 Eksport: 35 061,0 Import: 11 776,0  3,5 %	Hindiston TSA – 42 656,0 Eksport: 875,7 Import: 41 780,3  3,2 %	Germaniya TSA – 15 813,3 Eksport: 593,9 Import: 15 219,4  1,2 %	Shvetsariya TSA – 7 337,0 Eksport: 0,0 Import: 7 337,0  0,6 %

Viloyat jahonning 68 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (43,8 %), Koreya Respublikasida (26,8 %), Litvada (5,5 %), Chexiyada (4,5 %), Rossiyada (3,6 %), Turkiyada (3,6 %) va Qozog‘iston (3,5 %) qayd etilgan.




VILOYATNING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (2024 - yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Xitoy	78 961,8	366 861,7	578 181,1
 Eksport	14 619,2	21 392,8	25 717,9
Import	64 342,6	345 468,9	552 463,2
Koreya Respublikasi	116 808,6	182 600,9	354 416,7
 Eksport	103,5	5,5	120,7
Import	116 705,1	182 595,4	354 296,0
Litva	54 996,0	8 387,1	72 665,3
 Eksport	92,5	113,9	0,0
Import	54 903,5	8 273,2	72 665,3
Chexiya	1 054,2	65 859,9	58 921,7
 Eksport	0,0	77,9	191,3
Import	1 054,2	65 782,0	58 730,4
Turkiya	56 425,4	49 287,0	481 34,0
 Eksport	29 852,0	27 255,8	15 193,6
Import	26 573,4	22 031,2	32 940,4
Rossiya	61 799,7	50 934,1	47 703,9
 Eksport	34 54,0	32 260,1	34 451,2
Import	27 645,7	18 674,0	13 252,7
Qozog'iston	24 533,9	19 165,6	46 838,0
 Eksport	15 443,0	9 765,7	35 061,0
Import	9 090,9	9 399,9	11 777,0
Hindiston	3 021,2	2 683,7	42 656,0
 Eksport	992,8	670,2	875,7
Import	2 028,4	2 013,5	41 780,3
Germaniya	4 168,4	6 723,3	15 813,3
 Eksport	230,2	548,1	593,9
Import	3 938,2	6 175,2	15 219,4
Shvetsariya	359,4	1 787,7	7 337,0
 Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	359,4	1 787,7	7 337,0

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Qirg'iziston	7 946,4	4 126,6	7 335,2
	<i>Eksport</i>	3 933,8	3 635,3	4 436,7
	<i>Import</i>	4 012,6	491,3	2 898,5
	Eron	3 460,9	8 461,8	6 182,2
	<i>Eksport</i>	1 356,8	5 345,2	2 166,4
	<i>Import</i>	2 104,1	3 116,6	4 015,8
	Italiya	5 383,6	6 295,9	4 399,0
	<i>Eksport</i>	4 038,3	3 568,8	789,1
	<i>Import</i>	1 345,3	2 727,1	3 609,9
	Afg'oniston	5 031,0	3 152,7	4 023,9
	<i>Eksport</i>	4 615,4	2 878,9	3 884,5
	<i>Import</i>	415,6	273,8	139,4
	Tojikiston	4 131,9	2 797,4	2 764,8
	<i>Eksport</i>	2 535,4	2 792,8	2 764,8
	<i>Import</i>	1 596,5	4,6	0,0
	Belarus	1 447,2	1 762,2	2 395,5
	<i>Eksport</i>	592,5	556,2	186,3
	<i>Import</i>	854,7	1 206,0	2 209,2
	Niderlandiya	5,6	4 164,2	2 219,3
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	5,6	4 164,2	2 219,3
	Belgiya	45,1	1 990,3	2 094,8
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	45,1	1 990,3	2 094,8
	Yaponiya	101,0	89,0	1 982,4
	<i>Eksport</i>	25,9	0,0	0,0
	<i>Import</i>	75,1	89,0	1 982,4
	Pokiston	3 691,8	1 261,9	1 853,6
	<i>Eksport</i>	1 456,7	1 259,9	1 760,3
	<i>Import</i>	2 235,1	2,0	93,3



VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)*




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni **G'allaorol tumani** 39,4 % ulush bilan 521 048,4 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa **Yangiobod tumani** 0,2 % ulush bilan 2 336,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, viloyatlar, shaharlar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan



VILOYATNING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2024-yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi)



2024-yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 8,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga kamaydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 91,8 % ni tashkil etdi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-avgust oylarida **108 715,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **77 958,3** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **1 154 491,3** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



VILOYATNING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)

Rossiya – 43,9



Qozog'iston – 43,1



Qirg'iz
Respublikasi – 6,7



Tojikiston – 2,5



Belarus– 2,2



Ukraina – 0,6



Turkmaniston – 0,5




Ozarbajjon – 0,3



Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (43,9 %), Qozog'iston (43,1 %) hamda Qirg'iziston (6,7 %) davlatlari bilan qayd etildi.

VILOYATNING YEOLIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)



Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **104 361,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **74 223,6** ming AQSH dollari, import hajmi esa **30 137,4** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOLning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iziston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



JIZZAX VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni **141** taga yetdi va ular tomonidan **135 702,4** ming AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 15,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust ulushi % da)



* -Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



VILOYATNING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(2024-yil yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	117 505,6	135 702,4	95,9	115,5	100,0	100,0

shu jumladan:

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	107,2	0,0	0,0	0,0	0,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 960,9	2 767,9	133,2	141,2	1,7	2,0
Ichimliklar va tamaki mahsulotlari	79,5	61,4	0,0	77,2	0,1	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22 557,7	51 190,3	65,3	2,3 m.	19,2	37,7
Sanoat tovarlari	64 380,0	57 718,7	104,7	89,7	54,7	42,6
Turli xil tayyor buyumlar	14 582,8	9 556,5	109,9	65,5	12,4	7,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4 822,4	3 415,8	150,2	70,8	4,1	2,5
Xizmatlar	357,3	461,9	111,5	129,3	0,3	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	8 765,0	10 422,7	109,4	118,9	7,5	7,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (42,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (37,7 %) va turli xil tayyor buyumlar (7,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

VILOYATNING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-avgust)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	51 190,3	2,3 m.
Sabzavotlar va mevalar	44 524,0	2,4 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4 819,4	144,9
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)		
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	639,6	82,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	96,5	13,4 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	185,8	0,0
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	456,4	0,0
Tirik hayvonlar	468,7	0,0
Ichimliklar va tamaki	22,2	30,4
Tamaki va tamaki mahsulotlari	5,3	112,8
Ichimliklar	56,1	75,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 415,8	70,8
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	481,9	78,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	312,5	4,0 m.
Metall rudalari va metall parchalari	34,3	91,0
Qog'oz massasi va makulatura	1 539,7	54,4
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	299,5	91,9
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	748,0	80,0
Probka va yog'och-taxtalar		
Tabiiy kauchuk		
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Ko'mir, koks va briketlar	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	107,2	0,0
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	107,2	0,0
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	10 422,7	118,9
Noorganik kimyo moddalari	15,5	10,3 m.
O'g'itlar	3 471,3	108,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3,2	
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	873,8	97,4
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	80,2	5,1 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	3,8	0,0
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	1 066,5	2,2 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	4 908,4	118,1
Organik kimyo moddalari	0,0	0,0


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	57 718,7	89,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	37 172,1	63,3
Rangli metallar		
Cho'yan va po'lat		
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	19 203,6	3,5 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	177,6	114,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	3,6	0,0
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1 136,0	
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)		
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	25,9	4,5 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	2 767,9	141,2
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	25,3	35,3 m.
<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>		
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	2 387,8	125,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar		
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari		
Boshqa transport uskunolari	2,8	162,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	290,2	18,9 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	32,4	99,4
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	26,6	0,0
Metallarni qayta ishlash mashinalari	2,8	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	9 556,5	65,5
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	8 497,0	63,3
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	229,7	4,0 m.
Poyabzal	30,7	
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	20,1	
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	763,1	69,3
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	15,9	0,0
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	0,0	0,0
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	0,0	0,0

Viloyat tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,5 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2024-yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Qozog'iston, XXR, Turkiya, Afg'oniston, Qirg'iziston va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 89,9 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






VILOYATNING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024 yil yanvar-avgust)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Qozog'iston	9 765,7	35 061,0	63,2	3,6 m.	4	1
Rossiya	32 260,1	34 451,2	94,5	106,8	1	2
XXR	21 392,8	25 717,9	146,3	120,2	3	3
Turkiya	27 255,9	15 193,6	91,3	55,7	2	4
Qirg'iziston	3 635,3	4 436,7	92,4	122,0	6	5
Afg'oniston	2 879,0	3 884,5	62,4	134,9	8	6
Tojikiston	2792,8	2 764,8	110,2	99,0	9	7
Eron	5 345,2	2 166,4	3,9 m.	40,5	5	8
Pokiston	1 259,9	1 760,3	86,5	139,7	10	9
Polsha	1 096,2	1 036,4	33,0	94,5	11	10
Hindiston	670,2	875,7	67,5	130,7	12	11
Gruziya	454,2	808,8	144,3	178,1	15	12
Italiya	3 568,9	789,2	88,4	22,1	7	13
Iroq	319,5	752,8	7,5 m.	2,4 m.	22	14
Ukraina	276,7	624,5	85,0	2,3 m.	24	15
Germaniya	548,1	593,9	2,4 m.	108,4	14	16
Braziliya	151,4	538,0	0,0	3,6 m.	26	17
AQSh	4,1	421,4	1,5	102,8 m.	43	18
Peru	0,0	380,5	0,0	0,0	46	19
Kanada	0,0	323,2	0,0	0,0	47	20



VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)*



Wiloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni **Jizzax shahri** 27,7 % bilan 37 609,3 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa **Zafarobod tumani** 1,0 % bilan 1 333,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-avgust)

	Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
	Qozog'iston	76 468,0	31 039,1	69,7
	Turkiya	2 868,6	5 803,6	13,0
	XXR	3 990,0	2 733,8	6,1
	Pokiston	358,3	995,0	2,2
	Gruziya	932,5	712,2	1,6
	Germaniya	894,6	591,7	1,3
	Afg'oniston	312,8	590,3	1,3
	Rossiya	542,0	495,5	1,1
	Iroq	1081,2	321,6	0,7
	Qirg'iziston	1066,2	283,0	0,6
	Eron	325,3	246,9	0,6
	Boshqa davlatlar	847,4	711,5	1,8



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-avgust oylarida 89686,8 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,7 martaga yoki 65 520,2 tonnaga ko'paydi.


Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (69,7 %), Turkiya (13,0 %), Xitoy (6,1 %), Pokiston (2,2 %) hamda Gruziya (1,6 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 461,9 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,3 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 29,3 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (71,7 %), safarlar (turizm) (17,0 %) va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (11,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.




JIZZAX VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi **1 185 248,5** ming AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 172,7 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (91,3 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (2,4 %) hamda sanoat tovarlari (1,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **499 110,6** ming AQSH dollariga ko'paydi va **1 185 248,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



VILOYATNING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI

(2024-yil yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	686 137,9	1185248,5	2,1 m.	172,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11 641,8	18 058,7	68,7	155,1	1,7	1,5
Ichimliklar va tamaki	1,3	171,4	0,0	131,8 m.	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	5 239,1	5 190,8	124,9	99,1	0,8	0,4
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	9 941,4	8 735,1	2,4 m.	87,9	1,4	0,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	2 281,1	1 144,3	13,5 m.	50,2	0,3	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	21 849,1	28 667,3	95,2	131,2	3,2	2,4
Sanoat tovarlari	16 838,6	22 666,5	63,8	134,6	2,5	1,9
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	608 917,7	1081497,5	2,4 m.	177,6	88,7	91,3
Turli xil tayyor buyumlar	9 427,7	19 117,1	182,7	2,0 m.	1,4	1,6

20


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	22 666,5	134,6
Cho'yan va po'lat	4 240,7	113,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6 240,4	4,7 m.
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	6 514,1	84,6
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 188,6	3,2 m.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	170,8	63,8
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	2 366,4	118,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	35,3	17,4
Rangli metallar	910,3	97,2
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,0	0,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 081 497,5	177,6
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) <i>shu jumladan:</i>	651 803,8	138,3
<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>		
<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	185 220,9	6,4 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	180 388,9	196,6
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	25 982,8	2,9 m.
Boshqa transport uskunolari		
<i>shu jumladan: samolyotlar va uchish apparatlari, mexanik (vertolyotlardan tashqari)</i>		
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	13 794,2	6,8 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	1 990,2	184,5
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	15 107,5	3,2 m.
Metallarni qayta ishlash mashinalari	7 209,1	32,1 m.
Turli xil tayyor buyumlar	19 117,1	2,0 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	9 233,3	3,2 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1 843,0	134,0
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	991,1	25,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	5 081,7	35,0 m.
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	156,8	92,1
Poyabzal	10,4	123,8
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	1 798,5	188,1
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	2,3	176,9



2024- yil yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlarini import ulushi 2,6 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2024-yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oylarida viloyat 48 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Koreya Respublikasi, Litva, Chexiya, Turkiya, Germaniya va Hindiston) jami importning 95,0 % ulishini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






VILOYATNING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(2024-yil yanvar-avgust)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	345468,9	552 463,2	5,4 m.	159,9	1	1
Koreya Respublikasi	182595,4	354 296,0	156,5	194,0	2	2
Litva	8 273,2	72665,3	15,1	8,8 m.	7	3
Chexiya	65 782,0	58 730,4	62,4 m.	89,3	3	4
Hindiston	2 013,5	41780,3	99,3	20,7 m.	12	5
Turkiya	22 031,2	32 940,4	82,9	149,5	4	6
Germaniya	6 175,2	15 219,4	156,8	2,5 m.	8	7
Rossiya	18 674,0	13 252,7	67,5	71,0	5	8
Qozog'iston	9 399,9	11 777,0	103,4	125,3	6	9
Shveytsariya	1 787,7	7 337,0	5,0 m.	4,1 m.	14	10
Eron	3 116,6	4 015,8	148,1	128,9	10	11
Italiya	2 727,1	3 609,9	2,0 m.	132,4	11	12
Qirg'iziston	491,3	2 898,5	12,2	5,9 m.	21	13
Niderlandiya	4 164,2	2 219,3	743,6 m.	53,3	9	14
Belarus	1 206,0	2 209,2	141,1	183,2	19	15
Belgiya	1 990,3	2094,8	44,1 m.	105,3	13	16
Yaponiya	89,0	1 982,4	118,5	22,3 m.	35	17
Ispaniya	304,5	1 356,5	6,5 m.	4,5 m.	25	18
Bangladesh	1 376,4	1 000,2	139,9	72,7	17	19
AQSh	304,0	771,7	3,9 m.	2,5 m.	26	20



VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)



2023- y.

2024- y.


ViLOYAT importi tarkibida eng yuqori ulushni **G'allaorol tumani** 43,5 % bilan 515 078,3 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa **Yangiobod tumani** 0,02 % bilan 186,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 22 666,5 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,6 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 1,9 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust)

7 956,8 ming AQSH doll.
ulushi – 35,1 %



XXR

4 374,2 ming AQSH doll.
ulushi – 19,3 %



Koreya

2 960,3 ming AQSH doll.
ulushi – 13,1 %



Turkiya

2 695,6 ming AQSH doll.
ulushi – 11,9 %



Hindiston

1 748,4 ming AQSH doll.
ulushi – 7,7 %



Rossiya



Sanoat mahsulotlari importi asosan yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (6 514,1 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (6 240,4 ming AQSH dollari), cho'yan va po'lat (4 240,7 ming AQSH dollari), noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (2 366,4 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (2 188,6 ming AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.